



AIFU



XITOIY LINGVO-MADANIY ASPEKTIDA “面子” NING IJTIMOIIY VAZIFALARI

Farzona G‘ayrat qizi Norova
O‘qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: farzona.norova@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu ish xitoy jamiyati va madaniyatida “面子” ning o‘rni hamda uning ijtimoiy vazifalarini o‘rganib, “面子” ning resurs to‘plash, almashish va nurlanish vazifalarini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: “面子”, xitoy jamiyati, “面子” ning ijtimoiy vazifalari

СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ «面子» В КИТАЙСКОМ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОМ АСПЕКТЕ

47

Аннотация: В данной работе исследуется важность и социальные функции «面子» в китайском социуме и культуре, также описываются такие функции «面子» как собирать, обменивать и распространять ресурсы.

Ключевые слова: «面子», китайское общество, социальные функции «面子»

SOCIAL FUNCTIONS OF “面子” IN THE CHINESE LINGUACULTURAL ASPECT

Abstract: The given work investigates the role and social functions of “面子” in the society and culture of China, illustrating its functions such as gathering, sharing and radiating resources.

Key words: “面子”, Chinese society, social functions of “面子”

“面子” (yuz) tushunchasi xitoy tili lingvomadaniyatining ma’naviy shakllanishi bo‘lib, uning mazmuni xitoyliklar xulq-atvorining ijtimoiy normalarini ifodalaydi [1; 172]. Lin Yutangning fikriga ko‘ra, xitoyliklar uchun “面子” hayotdan ham muhimroq bo‘lib, xitoyliklar hayotida “面子” juda katta ahamiyatga egadir [3; 190-191]. G‘arb tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, “面子” Xitoy jamiyatidagi ko‘p ma’noli madaniy hodisa bo‘lib, “buning sharofati bilan xitoyliklar ma’lum darajada aktyorga, ularning butun hayoti esa teatrga aylanadi” [2; 45]. Qin Gong esa “面子” ni jamiyatdagi takabburlikning mahsuli bo‘lgan destruktiv hodisa deb biladi. [5; 188].

“汉语大词典” lug‘atida “面子” ga quyidagicha ta’rif berilgan:

面子 (miànzi) – 1) narsaning tashqi ko‘rinishi; 2) obro‘, hurmat, martaba, maqom [6]. Masalan: 有了王爷的面子, 还怕上头不收? [7]

Yöüle wángyé de miànzi, hái pà shàngtòu bù shōu?

Shaxzodaning **hurmatini** joyga qo‘yishmaydi deb o‘ylaysanmi?

“面子” shaxsiy fazilatlarini bilan bir qatorda insonning shuhratparastlik psixologiyasini ham o‘z ichiga olib [4; 41], odamlarning o‘zaro munosabati jarayonida tan olinganlik darajasi va ta‘sir kuchi kabi jihatlarga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy baholashdir. Demak, “面子” kuchli ijtimoiy xususiyatga egadir. Bir odamning “yuz”ining o‘lchami shaxsdan tashqaridagi ijtimoiy baholash bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun “yuz” statik emas, balki shaxsiy ijtimoiy resurslari va maqomning o‘zgarishi bilan o‘zgarib boruvchi ijtimoiy hodisadir. “面子” jamiyatda juda katta rol o‘ynab, ma‘lum vazifalarni ham bajaradi. Ma Chinglin o‘z dissertatsiyasida “面子” 3 ta vazifa bajarishini ko‘rsatgan [4; 60]:

1. resurs to‘plash vazifasi;
2. resurs almashinuv vazifasi;
3. resurs nurlanish vazifasi.

1. “面子”ning resurs to‘plash vazifasi

“面子” maqom, moddiy boylik va shaxsiy aloqalar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan ijtimoiy tarmoq tomonidan yaratilgan bo‘ladi. Shaxsning maqomi qanchalik baland bo‘lsa, moddiy boylik shunchalik ko‘p va aloqalar tarmog‘i shunchalik keng bo‘ladi. Shuning uchun, shuhratli maqom, cheksiz boylik va keng aloqalar bevosita shaxsning ijtimoiy guruhdagi so‘zlash huquqining muhimligi darajasini belgilaydi hamda turli xil murakkab narsalar bilan shug‘ullanganda, shaxs “yuzi”ning katta kichikligini aniq aks ettiradi. Misol uchun, universitet bayramida qaysi darajadagi yetakchilar fakultet va institutlar bilan faol bog‘langanligi atrofdagi guruhlar va shaxslarning diqqat markazida bo‘ladi. Rahbarlarning nutq va ko‘rsatmalari universitet rivoji uchun g‘oyat muhim: “Men bugungi tadbirda qatnashish uchun XX vakiliman...”, “Kelajakda biz XX universitetning rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz kerak va hamma birgalikda harakat qilishi kerak.” Ehtimol, nutqdan so‘ng loyihalar, grandlar va boshqa universitetning kelajakdagi taqdiri bilan bog‘liq ko‘plab qarorlar qabul qilinishi mumkin. Ko‘plab resurslar universitetda tabiiy ravishda to‘planadi. Rahbarning yuzi keng qamrovli ta‘sirga ega deb aytish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, yuz kuchli manba to‘plash funksiyasiga ega.

2. “面子”ning resurs almashinuv vazifasi

Resurslarni bo‘lishish va almashish jarayoni ham yordam va “面子” almashish jarayoni hisoblanadi. “面子” ning o‘zida mavjud bo‘lgan maqom, kuch, qobiliyat, boylik, shon-shuhrat va obro‘ – bularning barchasi almashinadigan resurslardir. “面子” mazmunining boyligi shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi roli bilan bog‘liq. Agar “面子”ni shaxslararo munosabatlarni saqlashning ajralmas manbasi sifatida ko‘rish mumkin bo‘lsa, uning uchun kurashish, unga g‘amxo‘rlik qilish va uni saqlash odamlarning ijtimoiy hayot psixologiyasiga mos keladigan resurs almashinuv xatti-harakati sifatida qaralishi mumkin.

“面子”ning resurs almashinuvini quyidagi holatlarga bo‘lish mumkin:

➤ Birinchidan, individ shaxsini tasdiqlovchi ma‘lumotlar almashinuv. Bu aloqalar tarmog‘ini yaratish va yangilashda o‘tiladigan muqarrar bosqichdir.

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

➤ Ikkinchidan, ta'sir almashinuvi. Hayot va ishga yomon ta'sir ko'rsatuvchi turli xil voqealar sodir bo'lsa, do'stlar muammolarni hal qilish uchun bir-birining ta'siridan foydalanishi mumkin. Masalan:

1. 我朋友是该学校的校长，给个面子，看这样解决行不行。

Wǒ péngyǒu shì gāi xuéxiào de xiàozhǎng, gěi gè miànzi, kàn zhèyàng jiějué xíng bùxíng.

Mening do'stim shu maktab direktori, qarang, **uning hurmatini joyga qo'yib**, muammoni shunday hal qilsak bo'ladimi?

➤ Uchinchidan, qudrat resurslari almashinuvi. “面子” ostidagi kuch-qudrat ham tez-tez almashinadigan resurslardan biridir. Bunday almashinuv ham ijobiy ham salbiy bo'lishi mumkin. Masalan, davlat qoshidagi turli vazirliklar ba'zida muammolarni hamkorlikda hal qilishadi. Bunga qarama-qarshi vaziyat esa korrupsiya bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida aytib o'tilgan qudrat xitoyda aynan “面子”ni tashkiliy komponenti hisoblangani uchun, bu “面子” resurslarining naqadar boyligi va ahamiyatligidan dalolat beradi.

3. “面子”ning resurs nurlanish vazifasi.

Muhim ijtimoiy resurs sifatida “面子” nafaqat shaxs va tashqi dunyo o'rtasidagi teng munosabatlarda, balki hayot doirasidagi noteng munosabatlar yoki o'zaro mos bo'lmagan munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Bu yerda ishlatilayotgan “nurlanish” so'zi markazdan har tarafga tarqalishni bildirib, ijtimoiy munosabatlarda katta maqom, afzallik va ta'sir kuchiga ega inson, hech shubhasiz, “nurlanish” ning markazida joylashadi. Masalan, rahbar yig'ilish paytida xodimga o'z iste'dodini namoyon qilish imkoniyatini bersa, unda ana shu xodim ongli ravishda rahbarning hurmatini his qiladi. Xitoychada ifoda etilganda:

•领导给了他面子。Lǐngdǎo gěile tā miànzi.

Rahbar unga “yuz berdi”. (hurmat ko'rsatdi)

Shu bilan birga, xodim atrofidagi hamkasblar rahbarning bu harakatlarini o'z vaqtida inobatga olgan holda ushbu xodimga nisbatan turli qulayliklar yaratishadi. Boshqa xodimlarning bunday xatti-harakatlari, rahbarning “yuzi” (obro'si va mavqei) ga hurmat bo'lishi bilan bir vaqtda rahbar e'tibor qaratgan xodimning hamkasblar orasida “yuzi” bir pog'onaga oshganining ifodasidir. Bu hodisa “yuz” ning markazdan tomonlarga yoki yuqori darajadan quyi darajaga “nurlanish” vazifasini yorqin aks etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xitoyda “yuz” qadimdan mavjud bo'lib, xitoyliklar madaniyati, ongi va xatti-harakat patternida juda chuqur ildiz otgan. Hozirda zamon o'zgarib, xitoyliklar dunyoga ochilgan bo'lsa-da, xitoy “yuz” madaniyati ular uchun hali ham muhim rol o'ynaydi. Shu sabab, xitoy tilini va madaniyatini o'rganuvchilar hamda xitoyliklar bilan muloqot qiluvchilar uchun “面子” madaniyatini, uning ijtimoiy vazifalarini bilish va ularni to'g'ri qo'llay olish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Даулет Ф.Н. Актуализация концепта «лицо» в китайской языковой картине мира. Вестник Московского университета. Серия 13. Востоковедение, № 3. 2019.
2. Макгован Дж. Китайцы у себя дома: очерки семейной и общественной жизни / Пер. с англ. В.В. Ламанского. М., 2017.
3. Lin Yutang. My Country and My People. L., 1936. <https://archive.org/details-MyCountryAndMyPeople1936/page/n7>
4. 马庆林. 中国面子文化与法律语言：“博弈—互补”范式. 博士学位论文. 陕西师范大学. 2018.
5. 秦弓. 瞧那丑陋的人. 广州: 花城出版社, 2005.

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

6. http://www.hydcad.com/cd/htm_a/22707.htm
7. <https://www.ziqqq.com/cidian/MzE3Mzc4.html>
8. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
9. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
10. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
11. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816.